# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

№6

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

2025
IYUN



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU




РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

*Elektron nashr,*
*164 sahifa, iyun, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan ........ 12
**Isakov Janabay Yakypbayevich**

Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash ........ 18
**Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B**

Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market ........ 23
**Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova**

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari ........ 29
**D.E.Qarshiev**

Ta’lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o‘smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O‘zbekiston ........ 35
**Islomova Dilrabo Salomovna**

Oliy ta’lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli ........ 40
**Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o‘gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich**

Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития ........ 47
**Алиев Аброр Мураткулович**

The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration ........ 52
**Dilorom Mutalova**

Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o‘zbekiston qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli ........ 57
**Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o‘g’li**

Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar ........ 62
**Jalilov Ahmadbek Ikromjon o‘g‘li**

Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida ........ 66
**Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich**

The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing ........ 73
**Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna**

Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties ........ 80
**Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ........ 85
**Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To’xtasinov Boburbek Yusufjon o’g’li**

Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo‘jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish...... ........ 89
**Fazilat Egamberganova Shuhratovna**

Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish ........ 93
**Ernaqulov Sunnatillo Nurali o‘g‘li**

Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari ........ 98
**Yembergenova Aynur Aydosbaevna**

Mahalliy budjetlar ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari ...... 104
**Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich**

Sirdaryo viloyatida investitsion faollikni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi ........ 110
**Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi**

Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari ............. 115
Umarkulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li

Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida .................. 118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich

Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari ............................... 125
Yaqubova Nodira Olim qizi

O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari ..................................... 130
Nosirova Charos

Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni ............. 135
Asadullina Nailya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li

Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri ......................................................................... 142
Berdibekov A.

Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lim xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari ............ 148
Axmedova Barno Abdiyevna

Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi ......................................................................................................................................... 151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich

Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari .......................................................................... 156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

**Amonov Mehriddin Oromiddinovich**
Iqtisod fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

**Orcid-0009-0007-2217-0472**

Annotatsiya: Maqolada hudud iqtisodiyoti, uning tarmoqlarida tadbirkorlik subyektlarining salmog‘i tahlil qilinib, iqtisodiy taraqqiyot va barqarorlikni ta’minlashdagi ahamiyati statistik ma’lumotlar asosida ko‘rsatib o‘tilgan. Kichik tadbirkorlik faoliyatlarini rivojlantirishni ta’minlovchi infratuzilmani yanada yaxshilash yuzasidan muallif takliflari berilgan.

Kalit so‘zlar: Tadbirkor, hudud iqtisodiyoti, sanoat, qurilish, iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiyot tarmoqlari.

Abstract: The article analyzes the economy of the territory, the weight of economic entities in its industries and, based on statistical data, indicates its importance for ensuring economic development and stability. The author’s proposals for further improvement of the infrastructure that ensures the development of small business activities are given.

Keywords: Entrepreneur, territorial economy, industry, construction, economic development, economic sectors.

Аннотация: В статье анализируется экономика территории, вес хозяйствующих субъектов в ее отраслях и на основе статистических данных указывается ее значение для обеспечения экономического развития и стабильности. Даны авторские предложения по дальнейшему совершенствованию инфраструктуры, обеспечивающей развитие деятельности малого предпринимательства.

Ключевые слова: Предприниматель, экономика территории, промышленность, строительство, экономическое развитие, отрасли экономики.

## KIRISH

Jahonda global iqtisodiy integratsiya va raqobatning kuchayishi sharoitida tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish muammolarini tadqiq etishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Tadbirkorlik faoliyatiga davlat tomonidan ma’muriy ta’sirni kamaytirish, strategik ahamiyatga ega sohalardagi tadbirkorlar faoliyati uchun ko‘proq imtiyozlar joriy etish, ro‘yxatga olishni tezlashtirish, sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltirish hamda soliq yukini kamaytirish, innovatsion tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, “biznes inkubatorlarni” yaratish tajribasini ommalashtirish, innovatsion tadbirkorlikka soliq imtiyozlarini joriy etish, chekka hududlardagi tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikning eksport faoliyatini rag‘batlantirish kabi masalalar mazkur muammo bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyati orqali bozordagi talab va taklif muvozanati, hududdagi bandlik masalasi makroiqtisodiy barqarorlik kabi hudud va mailliy iqtisodiyotdagi dolzarb masalalar ta’minlanadi.

Mamlakatimizda ham so’ngi yillarda davlat tomonidan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar katta ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF-229-son “Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta’minlash bo’yicha navbatdagi chora-tadbirlar to’g’risada”gi Farmoni [1] kabilar hukumatimiz tomonidan qabul qilinib amaliyotga joriy etilayorgan xuquqiy-me’yoriy xujjatlar tadbirkorlik faoliyatini mamlakatimiz hududlarida jadal rivojlanishini ta’minlovchi islohatlar bo’lib hisoblanadi. Ushbu islohotlar nafaqat tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni, balki barqaror iqtisodiy o‘sish, erkin bozorning to‘laqonli shakllanishini ham ta’minlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI.

Tadbirkorlik faoliyatini va uni rivojlantirish masalalari yuzasadan ilmiy izlanishlar olib borgan xorijiy va mahalliy iqtisodchilar Yu.Rubin [2], A.Xoskin [3], S.G'ulomov [4], M.Boltaboev, M.Qosimova, Sh.Ergashxodjaeva, B.G'oyibnazarov, A.Samadov, Sh.Otajonov [5], V.Kushlin [6], B.Yusupov [7] va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari hamda olib borgan tadqiqotlari o'rganildi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Maqolada tadbirkorlik faoliyatini rivojlanishiga oid ilmiy ishlar va tahlillar olib borgan yetakchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalarini o'rganish va ma'lumotlarini taqqoslash, qiyosiy, iqtisodiy, mantiqiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Surxondaryo viloyatning yillik YaHM 2024 yilda 54 354,1 mlrd. so'mni1 tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 105,9 foizga o'sish sur'atiga erishilgan. Viloyat YaHMning shakllanishida asosiy rolni qishloq, o'rmon va baliqchilik ho'jaligi tashkil etgan. Agar so'ngi besh yillik makroiqtisodiy natijalarini kuzatadigan bo'lsak, YaHMning shakllanishida birinchi o'rinda ushbu sohadagi tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati ahamiyatli o'rin kasb etgan. Keyingi o'rinlarda kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarining xizmat ko'rsatish sohasi vakillari va tijorat sohasidagi vakillarining faoliyati ahamayatli o'rin tutgandir. So'ngi o'rinlarni sanoat sohasi, shuningdek, qurilishni sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar o'z hissalarini qo'shishgan.

Surxondaryo viloyatida 2024-yil 1-yanvar holatida viloyatda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 4812 taga yetgan (1-rasm). Quyida berilgan statistik ma'lumotlar ko'rsatib turibdiki, 2010-yildan 2012-yilgacha bo'lgan muddatda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni pasayish tendensiyalarini aks ettirgan bo'lsa 2012 yildan to 2020-yilgacha, ayniqsa 2018–2020-yillarda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni yuqori sur'atlarda o'sish tendensiyalarini namoyish etganligi 2019-yilda 4845 dan 2020-yil 7542 ni, ya'ni yillik o'sish 55 foizdan oshiqroq bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-2023-yillarda esa butun dunyo iqtisodiyotida bo'lgani kabi mamlakatimiz, xususan, Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga ham covid-19 ning salbiy ta'siri kuzatilib, yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni pasayish tendensiyalarini namoyish etgan va 2024-yilga kelib yana o'sish sur'atlarini ko'rsatgan.




1-rasm:Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik)[2]

1 Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida
2 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Quyida keltirilgan 1-jadvalda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik) Surxondaryo viloyari hamda viloyatning tumanlari kesimida keltirilgan bo'lib, viloyat miqiyosida so'ngi o'n besh yilda yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 274 foizga yaqin o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu ko'rsatkich tumanlar kesimida Termiz tumani, Bandixon tumani va Oltinsoy tumanilarida eng yuqori 515, 495 va 432 foizlarni tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Uzun tumani va Qumqo'rg'on tumanlarida 194 va 180 foizlarni tashkil qilmoqda. Albatta bu ko'rsatkichlarga bir qancha omillar ta'sir etadi, asosiylari sifatida ushbu tumanlarda yaratilayotgan qulay infratuzilma bilan birgalikda oldingi yillardagi erishilgan yutuqlar ham keying yillar foiz darajasini yuqori yoki past bo'lishiga ta'sir etadi.

1-jadval:Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik)[3]

| Yillar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2024 yil 2010 yilga nisbatan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Surxondaryo v. | 1758 | 1567 | 889 | 1279 | 1304 | 1254 | 1812 | 1988 | 2781 | 4845 | 7542 | 5050 | 4083 | 3804 | 4812 | 273,72 |
| Termiz shahri | 372 | 425 | 232 | 279 | 317 | 331 | 431 | 428 | 541 | 870 | 824 | 1066 | 677 | 698 | 909 | 244,35 |
| Oltinsoy tumani | 61 | 58 | 17 | 39 | 37 | 30 | 61 | 55 | 69 | 183 | 367 | 124 | 184 | 249 | 264 | 432,79 |
| Angor tumani | 86 | 87 | 40 | 62 | 61 | 50 | 88 | 94 | 158 | 223 | 306 | 236 | 226 | 189 | 242 | 281,40 |
| Bandixon tum. | 22 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 215 | 159 | 150 | 104 | 109 | 495,45 |
| Boysun tumani | 50 | 64 | 40 | 65 | 64 | 62 | 65 | 77 | 103 | 170 | 423 | 215 | 225 | 135 | 144 | 288,00 |
| Muzrabot tum. | 67 | 73 | 48 | 63 | 44 | 46 | 76 | 70 | 125 | 210 | 374 | 223 | 205 | 168 | 168 | 250,75 |

3 O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari

| | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Denov tumani | 203 | 147 | 119 | 160 | 148 | 150 | 205 | 227 | 351 | 638 | 1044 | 574 | 467 | 425 | 531 | 261,58 |
| Jarqo'rg'on t. | 173 | 98 | 73 | 99 | 87 | 90 | 159 | 169 | 185 | 385 | 595 | 400 | 316 | 293 | 477 | 275,72 |
| Qumqo'rg'on t. | 145 | 111 | 69 | 75 | 73 | 65 | 106 | 126 | 181 | 338 | 767 | 325 | 270 | 195 | 261 | 180,00 |
| Qiziriq tumani | 76 | 41 | 29 | 47 | 57 | 74 | 91 | 107 | 166 | 253 | 475 | 206 | 160 | 242 | 267 | 351,32 |
| Sariosiyo tum. | 100 | 84 | 51 | 58 | 79 | 55 | 87 | 102 | 129 | 198 | 295 | 248 | 219 | 212 | 223 | 223,00 |
| Termiz tumani | 82 | 64 | 38 | 81 | 86 | 102 | 120 | 131 | 191 | 384 | 427 | 269 | 189 | 166 | 422 | 514,63 |
| Uzun tumani | 77 | 82 | 33 | 58 | 56 | 54 | 81 | 85 | 149 | 236 | 360 | 259 | 183 | 150 | 149 | 193,51 |
| Sherobod tum. | 127 | 129 | 50 | 84 | 75 | 49 | 111 | 118 | 152 | 284 | 510 | 379 | 352 | 337 | 281 | 221,26 |
| Sho'rchi tumani | 117 | 104 | 50 | 109 | 120 | 96 | 131 | 199 | 281 | 473 | 560 | 367 | 260 | 241 | 365 | 311,97 |

Quyida keltirilgan 2-rasmda esa Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 2010–2024-yillari statistik tahlil ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, keltirilgan tahlilni ko'rib chiqadigan bo'lsak, oldingi yillarga nisbatan 2013-yilda viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni biroz pasayishni va tahlil etilayotgan yillar ichida eng quyi ko'rsatkichni qayd etgani ko'rishimiz mumkin. Shu kabi holat, 2014-yilgi ko'rsatkich 2018-yilga kelib qayd etilganini va shundan so'ng keying yillarda 2018-yildan 2023-yilgacha muntazam o'sich sur'atlarini kuzatishimiz mumkin. Lekin 2024-yilga kelib viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni so'ngi uch yilga nisbanat past ko'rsatkichni tashkil etib, ular soni 20 589 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Bu ham bizning nazarimizda, butun dunyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir etgan covid-19 ning asoratlari hisobiga yuzaga kelgan holatdir. (2-rasm).




2-rasm:Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik)[4]

Surxondaryo viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni tumanlar kesimida ko’rib chiqadigan bo’lsak, 2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko’rinib turibdiki so’ngi o’n besh yilda viloyat miqyosida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari 230 foizga oshgan bo’lsa, viloyatdagi tumanlar ichida ushbu ko’rsatkich bo’yicha eng yuqori ko’rsatkich 806 foiz bilan Boysun tumani boshqa tumanlardan keskin farq qilib turibdi. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining so’ngi o’n besh yillikdagi eng past ko’rsatkichlarni tashkil etgan tumanlar sirasiga 173 goiz bilan Denov tumani hamda 125 foiz bilan Bandixon tumanlarini ko’rib o’tishimiz mumkin. Shu o’rinda aytib o’tish joizki Bandixon tuman 2011–2020-yillar Qiziriq tumani tarkibida bo’lgan. Boshqa tumanlardagi holat 2-jabvalda keltirib o’tilganidek, umumiy viloyat bo’yicha ko’rsatilgan 230 foiz ko’rsatkichdan keskin farq qilmagan holda, ya’ni past foizda oshgan holda Termiz shahri, Oltinsoy tumani, Qumqo‘rg‘on tumani va Sho‘rchi tumanlarida kuzatilgan bo’lsa, viloyatdagi o’rtachaga nisbatan yuqori foizda oshgan holda Angor tumani, Jarqo‘rg‘on tumani, Qiziriq tumani, Sariosiyo tumani, Termiz tumani, Uzun tumani va Sherobod tumanlarini ko’rib o’tishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval:Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni (yillik)[5].

| Yillar | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 | 2016 | 2017 | 2018 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022 | 2023 | 2024 | 2024-2010 |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 8946 | 8635 | 9060 | 8195 | 10590 | 9062 | 9061 | 9418 | 10409 | 11618 | 15509 | 21563 | 24395 | 27368 | 20589 | 230,1 |
| Termiz shahri | 1817 | 1630 | 1822 | 1618 | 1888 | 1996 | 1976 | 2118 | 2383 | 2802 | 3360 | 4021 | 4579 | 5148 | 3753 | 206,5 |
| Oltinsoy t. | 377 | 369 | 368 | 322 | 410 | 293 | 330 | 337 | 341 | 356 | 520 | 843 | 865 | 961 | 819 | 217,2 |

4 O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
5 O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

| | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Angor tum. | 440 | 481 | 518 | 424 | 584 | 324 | 376 | 424 | 492 | 579 | 774 | 1029 | 1175 | 1340 | 1047 | 238,0 |
| Bandixon t. | 424 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 0 | 348 | 467 | 581 | 528 | 124,5 |
| Boysun t. | 112 | 362 | 373 | 341 | 457 | 377 | 410 | 417 | 511 | 587 | 711 | 1057 | 1132 | 1230 | 903 | 806,3 |
| Muzrabot t. | 399 | 329 | 346 | 306 | 393 | 286 | 327 | 336 | 380 | 508 | 685 | 1022 | 1143 | 1264 | 916 | 229,6 |
| Denov tum. | 1429 | 1360 | 1347 | 1296 | 1596 | 1667 | 1325 | 1232 | 1254 | 1302 | 1903 | 2680 | 2929 | 3193 | 2467 | 172,6 |
| Jarqo‘rg‘on t. | 548 | 597 | 622 | 608 | 826 | 557 | 790 | 856 | 831 | 890 | 1199 | 1741 | 1954 | 2239 | 1627 | 296,9 |
| Qumqo‘rg‘on | 629 | 638 | 708 | 541 | 948 | 958 | 459 | 523 | 578 | 641 | 943 | 1370 | 1580 | 1808 | 1242 | 197,5 |
| Qiziriq tum. | 328 | 301 | 382 | 321 | 487 | 292 | 384 | 383 | 442 | 594 | 818 | 1125 | 1192 | 1263 | 904 | 275,6 |
| Sariosiyo t. | 490 | 508 | 510 | 417 | 528 | 415 | 416 | 474 | 531 | 556 | 740 | 996 | 1214 | 1368 | 1169 | 238,6 |
| Termiz tum. | 397 | 388 | 337 | 341 | 445 | 396 | 605 | 681 | 814 | 821 | 1190 | 1564 | 1730 | 1884 | 1290 | 324,9 |
| Uzun tumani | 386 | 418 | 489 | 521 | 629 | 420 | 456 | 481 | 553 | 591 | 765 | 1056 | 1250 | 1407 | 1121 | 290,4 |
| Sherobod t. | 530 | 541 | 618 | 585 | 735 | 488 | 645 | 664 | 687 | 639 | 889 | 1313 | 1549 | 1842 | 1472 | 277,7 |
| Sho‘rchi t. | 640 | 615 | 620 | 554 | 664 | 593 | 562 | 492 | 612 | 752 | 1012 | 1398 | 1636 | 1840 | 1331 | 208,0 |

Keltirilgan 3-rasmda Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning 2010-2024-yillarda viloyat YaHMdagi, xususan, sanoatidagi va qurilishidagi ulushi umumiy hajmga nisbatan foizlarda keltirilgan bo’lib, ushbu ma’lumotdan ko’rinib turibdiki, 2024-yilda viloyatdagi qurilish sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi sanoat va YaHMdagi ulishiga nisbatan ancha yuqori bo’lib 90,5 foizni tashkil etgan, YaHMdagi ulishi esa 77,8 foizni, sanoatdagi ulushi esa 64,8 foizni tashkil etgan. So’ngi o’n besh yildagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot sohalardagi rivojlanish tendensiyasini tahlil qiladigan bo’lsak, aynan sanoat sohasida yuqori ko’rsatkichlarga erishilganligini ko’rishimiz mumkim, xususan, 2010-yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat sanoatidagi ulushi 25,4 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2024-yilga kelib bu ko’rsatkich 255 foizga oshib, 64,8 foizni tashkil etmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat YaHMdagi ulishi so’ngi o’n besh yilda barqaror holatda 70 foizdan yuqori bo’lib, 2018-yilda 81,1 foizni tashkil etgan bo’lsa, keying yillarda nisbatan kamaygan bo’lishiga qaramay 77 foizda yuqori bo’lib turibdi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyatdagi jami qurilishdagi hissasi 2022-yilda o’zining eng yuqori ko’rsatkichini 92,2 foizni tashkil etgan bo’lib,keying yillarda ham 90 foizdan tushib ketmagan.




3-rasm:Surxondaryo viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmga nisbatan % da)[6]

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olingan tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, jumladan, tadbirkorlar uchun yaratilgan infratuzilmani takomillashtirish, ular faoliyatini innovatsion qo'llab-quvvatlashni orqali tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga, barqarorlashtirishga erishish mumkin.

Shu ma'noda tadbirkorlik faoliyati rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish jamiyatda tadbirkorlik tuzilmalarining yanada samarali faoliyat yuritishi uchun asos bo'lishini ta'kidlab o'tishimiz joiz.

Tadbirkorlikni rivojlantirishga to'siq bo'luvchi omillarni tadqiq etish va tahlillar asosida samarali echimlarni joruy etish davlat iqtisodiy siyosatining muhim jihatlaridan biri bo'lishi lozim.

Xususan, Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan Business Ready (Готовность к бизнесу - Biznesga tayyorlik) (READY) 2024[7] hisobotida ko'rsatib o'tilga, davlatlarda tadbirkorlik faoliyati uchun yaratilgan shart-sharoitlarni hisobga oluvchi asosiy reyting ko'rsatkichlari: korxonalar uchun mo'ljallangan me'yoriy-huquqiy baza va davlat xizmatlari, shuningdek, me'yoriy-huquqiy baza va davlat xizmatlari amalda birlashtirilgan samaradorligini doimiy tavishda xukumat tomonidan takomillashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrdagi PF-229-son "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar"gi Farmoni (https://www.lex.uz/uz/docs/-7283088).
2. Рубин Ю. Б. Основы предпринимательства: учебник: 3-е изд., перераб. и доп. – М.: «Университет Синергия», 2020. – 518 с.
3. Хоскин А. Курс предпринимательства / Пер. с англ. М:, «Прогресс» 2013, - 349 с.
4. G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes – T.: "Sharq", 2002,- 236 b.
5. Boltaboev M.R., Qosimova M.S., Ergashxodjaeva Sh.J., G'oyibnazarov B.K., Samadov A.N., Otajonov Sh. Kichik biznes va tadbirkorlik – T.: "Iqtisodiyot", 2012, - 280 b.
6. Кушлин В.И. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. Изд. 3-е, доп. и перераб. – М.: «РАГС», 2014. – 616 с.
7. Yusupov B.A. «O'zbekistonda kichik biznes iqtisodiy salohiyatidan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish», Dissertatsiya, – T., 2020. – 148 b.;
8. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish. Dissertatsiya i.f.f.d., - T., 2024.–142 b.
9. Amonov M.O. Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash tizimi samaradorligini baholash usuli "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 2024-yil №10-son 390-397 betlar

6 Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi
7 Всемирный банк. 2024. Business Ready 2024.Резюме. Всемирный банк, Вашингтон, округ Колумбия. Лицензия: Creative Commons Attribution CC BY 3.0 IGO https://www.worldbank.org/en/businessready

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 6**


© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07
https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal
t.me/yait_2100